

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN BIZNES LOYIHALARNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li

Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan, kichik biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab quvvatlash manbalari tadqiq qilingan hamda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: biznes loyiha, bank, bank krediti, moliyalashtirish, davlat mablag'i, davlat dasturi, moliyaviy lizing, investisiya.

Abstract: This article examines the specifics of financing small businesses, examines the sources of financial support for small business projects, and provides suggestions and recommendations for improving the practice of lending to small businesses by commercial banks.

Key words: business project, bank, bank loan, financing, state fund, state program, financial lease, investments.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности финансирования субъектов малого предпринимательства, исследуются источники финансовой поддержки проектов малого предпринимательства, а также даются предложения и рекомендации по совершенствованию практики кредитования субъектов малого предпринимательства коммерческими банками.

Ключевые слова: бизнес-проект, банк, банковский кредит, финансирование, государственный фонд, государственная программа, финансовая аренда, инвестиции.

KIRISH

So'nggi yillarda xalqaro maydondagi vaziyat dunyo iqtisodiyotiga, shu jumladan, milliy iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Turli ziddiyatlar sababli logistika sohasidagi muammolar, etakchi hamkor mamlakatlar valyutasining qadrsizlanishi, global darajada inflyasiyaning oshishi natijasida moliyaviy bozorlaridan resurslarni jalb qilish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Shu boisdan, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning intensiv yo'llarini amaliyotga tatbiq etish, ichki moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ishlab chiqarishning uzluksiz zanjirini yo'lga qo'yish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda kichik va o'rta biznes subyektlarining ta'siri beqiyos. Xususan, AQSh¹ yalpi ichki mahsulotida kichik va o'rta biznesning ulushi taxminan 54%, Xitoyda² 60%, Rossiya Federasiyasida³ 21%ni tashkil qiladi.

Mamlakatimizda ham kichik biznesni rivojlantirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish natijasida aholining ish bilan ta'minlanish darajasini oshirish va "oilaviy tadbirkor – mikrobiznes – kichik biznes – o'rta biznes" zanjirini rivojlantirish yo'lida ko'plab ishlar amlaga oshrilmogda. Shuningdek, kichik biznes subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 306-sonli, 2023-yil 15-noyabrdagi "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 366-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-yanvardagi "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 37-sonli qarorlari qabul qilindi. Mazkur qarorlar ijrosini ta'minlash va kichik biznesni rivojlantirish maqsadida ularni moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish,

1 <https://www.bankrate.com/loans/small-business/small-business-statistics/#ownership>

2 Liu, Xiangfeng // SME Development in China: A Policy Perspective on SME Industrial Clustering. Institute for International Economic Research (IER), National Development and Reform Commission (NDRC). —Report 2020–5, pp. 37–68. [Electronic resource] // Mode of access: http://www.eria.org/SME%20Development%20in%20China_A%20Policy%20Perspectiv%20on%20SME%20Industrial%20Clustering.pdf.

3 <https://iz.ru/1635167/mariia-stroiteleva/bolshe-ot-menshikh-vklad-msp-v-ekonomiku-rossii-vyros-do-21>



tijorat banklari tomonidan soddalashtirilgan tartibda qaror qabul qilish, kredit shartnomalarini rasmiylashtirish va loyihalarni monitoring qilish jarayonlarining soddalashtirilgan tartibi ishlab chiqildi.

Demak, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, aholi bandligi va daromadlarining o'sishiga erishish uchun kichik biznes subyektlarini barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biznes loyihalarni moliyalashtirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan, ammo tijorat banklarining o'ziga xos moliyaviy qo'llab-quvvatlash usullari alohida e'tibor talab etadi. Tijorat banklari kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda asosiy vositachilardan biri bo'lib, banklar tomonidan beriladigan kreditlar va boshqa moliyaviy xizmatlar iqtisodiy rivojlanishga muhim hissa qo'shadi. O'zbek olimlari, xususan, M. Ubaydullaev, O. Karimov va boshqalar tijorat banklarining rolini tahlil qilishda innovasion moliyalashtirish modellariga e'tibor qaratganlar.

M. Ubaydullaev o'zining ilmiy ishlarida tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonida kredit risklarini boshqarishning muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, kredit risklarini tahlil qilish va boshqarish mexanizmlari samarali bo'lishi uchun innovasion yondashuvlar talab etiladi. Shu jumladan, O'zbekistondagi tijorat banklari uchun risklarni diversifikatsiyalash hamda kapitalni ko'paytirish kabi muhim strategiyalarni tatbiq etish zarur.

O. Karimov esa bank tizimida strategik rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlarining muhimligini o'rganib, tijorat banklari va kichik va o'rta biznesni o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirishni taklif etadi. U biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda banklarning shartlarini yumshatish, garov ta'minoti va kredit shartlarida soddalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini urg'ulaydi. Shu bilan birga, tijorat banklarining texnologik imkoniyatlarni kengaytirib, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish masalalariga ham ahamiyat beradi.

Xalqaro olimlar esa, biznes loyihalarni moliyalashtirishda banklar o'rtasida raqobatni oshirish va kapital bozorini rivojlantirishning muhimligini ta'kidlab o'tganlar. Masalan, A. Berger va G. Udell o'z tadqiqotlarida kichik va o'rta korxonalar uchun kredit resurslarini kengaytirishning asosiy omillaridan biri sifatida tijorat banklari va davlat moliyaviy institutlari o'rtasidagi hamkorlikka e'tibor qaratadilar.

Shunday qilib, tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonlari, ularning rivojlanishi va risklarni boshqarishning o'ziga xos jihatlari O'zbekistondagi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro va milliy adabiyotlar moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan holda, tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish uchun keng ko'lamli tavsiyalar beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Kichik biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda asosan quyidagi manbalardan foydalaniladi:

1. Davlat tomonidan moliyalashtirish.
2. Xususiy kapital hisobidan moliyalashtirish.
3. Bank kreditlari orqali moliyalashtirish.
4. Venchur moliyalashtirish.
5. Lizing.
6. Forfeiting.
7. Aralash moliyalashtirish va boshqalar.

Kichik biznes loyihalarini davlat tomonidan moliyalashtirish shakli asosan Respublika va mahalliy budjetlar mablag'lari evaziga amalga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy e'tibor milliy iqtisodiyot tarmoqlarining strategik ahamiyatiga qaratiladi. Ustuvor ahamiyatga molik tarmoqlardagi innovasion loyihalarni moliyatirish orqali xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik ta'minlanishi ko'zda tutiladi. Budjet mablag'larining innovasion loyihalarga ajratilishi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- davlat maqsadli dasturlarini amalga oshirish doirasida;
- istiqbolli innovasion loyihalarni tanlov orqali tanlab olish asosida.

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 noyabridagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son Farmongi ko'ra Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ shak-



lida qayta tashkil etildi. Kompaniyaning ustav fondi 300 mlrd. so'm miqdorida shakllantirildi. Belgilangan vazifalarni bajarish uchun Kompaniyaga

10 yil muddatga 1,2 trln. so'm miqdorida foizsiz budjet ssudasi va xalqaro moliya institutlaridan 100 mln. AQSh dollari miqdorida mablag' jalb qilish maqsad qilingan.

Kompaniya mablag'laridan foydalanish bo'yicha tijorat banklari bilan tuziladigan vositachilik shartnomalariga muvofiq belgilangan limit hamda umumiy miqdor va shartlarga ko'ra kreditlar bo'yicha kafil bo'la oladi. 2024-2026 yillarda kichik biznes subyektlariga MB asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori va asosiy stavkaning 1,75 baravaridan oshmagan holda milliy valyutada 5 mlrd. so'mgacha ajratiladigan kreditlar bo'yicha asosiy stavkaning 40 foizigacha bo'lgan miqdorda 3 yilgacha bo'lgan muddatga kompensasiya taqdim qilish imkoni berildi⁴.

Korxonaning o'z mablag'lari (xususiy kapital) hisobiga innovasion faoliyatni moliyalashtirish birmuncha murakkab masala hisoblanadi. Odatda kichik biznes tarkibiga kiritiluvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovasion faoliyat bilan shug'ullanish uchun etarli darajada mablag'lari bo'lmaydi. Aksariyat hollarda innovasion faoliyatni olib borish yirik korxonalar, ya'ni aksiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonalarda uchraydi. Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi korxonada yirik hajmdagi moliyaviy mablag'larni jamlay olish va uni aynan innovasion faoliyatga yo'naltirish imkoniyati oshadi. Shu bilan birga, bu shakldagi korxonalarda istiqbolli innovasion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha aksiyalar emissiyasini amalga oshirish imkoniyatlari mavjud. Bu yo'l bilan kredit resurslaridan foydalanish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy xarajatlar birmuncha tejab qolinadi. Qimmatli qog'ozlarning qo'shimcha emissiyasi miqdorini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi:

- innovasion loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar hajmi;
- kapital va dividend miqdorining kutilayotgan o'sish hajmi;
- aksiyalarning joylashtirilishi natijasida emitent tomonidan olinishi kutilayotgan pul tushumlari hajmi.

Innovasion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tomonidan innovasion faoliyatni moliyalashtirishda asosiy e'tibor loyihaning o'z-o'zini qoplash muddatlariga qaratiladi. Aksariyat hollarda tijorat banklari innovasion loyihaning o'zini o'zi qoplay olish muddatlari, uning to'liq amalga oshirilishi muddatlaridan ozroq muddatga mo'ljallangan loyihalarni moliyalashtirishdan manfaatdor bo'ladi. Bank kreditlari uchun foiz stavkalari kredit muddati, hajmi, loyihaning tavakkalchilik darajasi, qarz oluvchining moliyaviy holati va boshqa jihatlarni e'tiborga olgan holda belgilanadi. Xorijiy davlatlarda investision banklar tomonidan foiz stavkasini belgilashda mavjud bazis stavkalaridan foydalaniladi (LIBOR, LIBID va FIBOR).

Innovasion loyihalarni ventchur asosida moliyalashtirishning dastlabki bosqichlardan o'q yuqori tavakkalchilik xatari mavjud bo'lib, investisiyalashtirilgan jarayonlarning yakuniy natijalari amalga oshirilgandan keyin ijobiy samaraga erishilmagan taqdirda moliyalashtirilgan mablag'lardan ajralib qolish holati kuzatilishi mumkin. Ventchur kapitalining investorlari barcha mas'uliyat va moliyaviy xatarlarni tadbirkor bilan teng sheriklikda o'z zimmalariga oladilar. Ventchurli investisiyalar odatda 5-7 yil davomida faoliyat ko'rsatadi. Innovasion loyihani amalga oshirishni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning quyidagi bosqichlari farqlanadi:

- 1) fondni (jamg'armani) yaratish;
- 2) kelishuvlarni amalga oshirish (shartnomalarni imzolash);
- 3) investisiyalash;
- 4) investisiyalashdan keyingi boshqaruv;
- 5) biznesdan chiqish jarayonini boshqarish.

Moliyaviy lizing mulkni, bevosita moliyaviy ijara obyektini kelishilgan shartnomaga binoan o'n ikki oydan ortiq muddatga egalik qilish va foydalanish huquqini berishda yuzaga keladigan ijaraviy munosabatlardir. Moliyaviy lizing quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- moliyaviy lizing shartnomasining muddati tugagach, moliyaviy ijara obyektini ijaraga oluvchining mulki bo'lib o'tishi;
- moliyaviy lizing shartnomasining muddati moliyaviy lizing obyektini xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo'lishi yoki moliyaviy lizing obyektining moliyaviy lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang'ich qiymatining 20 foizidan kamrog'ini tashkil qilishi;
- moliyaviy lizing shartnomasining muddati tugagach, ijaraga oluvchi moliyaviy lizing obyektini ushbu huquq sotilish kunidagi bozor qiymatidan ancha past narxda sotib olish huquqiga ega ekanligi va bunda lizing muddatining boshida ushbu huquqning sotilishiga asoslangan ishonchning mavjud bo'lishi;
- moliyaviy ijara shartnomasi amal qiladigan davr uchun ijara to'lovlarining diskontlangan joriy qiymati moliyaviy ijara obyektini ijaraga berish paytidagi joriy qiymatining 90 foizidan ortiq bo'lishi.

Moliyaviy lizing bir tomondan yuqori qiymatli asbob-uskunalarini ko'p sonli foydalanuvchilarga taqdim etish imkoniyatini, ikkinchi tomondan lizing oluvchilarning muayyan davrda yirik hajmdagi xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

⁴ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/kichik_va_urta_biznesni_qanday_quvvatlashadi



Forfeyting tijorat kreditining bank kreditiga aylanishi bilan bog'liq operatsiya hisoblanadi. Bu operatsiyaning mohiyati quyidagilarda ifodalanadi: forfeyting operatsiyalarida ishlatiladigan moliyaviy vositalar banklardagi an'anaviy savdo veksellari hisob-kitoblari kabi qo'llaniladi. Farqi shundaki, veksel egasi yagona import qiluvchi sifatida forfeytingda tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi. Oddiy hisob-kitobda esa veksel qonunchiligiga binoan ko'pgina hollarda qarzdorlik javobgarligi eksport qiluvchining xaridorni kreditlashni uzaytirishiga imkon beradi. Bankning forfeyting operatsiyalari bo'yicha tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishi investorlarning o'z mablag'larini uzoq muddatga qo'shimcha joylashtirishga qiziqishlarini oshiradi. Forfeyting operatsiyalarida ishtirok etuvchi banklar uchun evrovalyuta bozori moliyaviy vositalar bozori bo'lib hisoblanadi. Forfeyting bo'yicha kreditlash muddatlari odatda 1 yildan 7 yilgacha bo'lgan davrni tashkil etadi.

Umuman olganda hozirgi davrda innovasion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini belgilaydigan hal qiluvchi omil – bu ilmiy tadqiqot va prinsip jihatidan yangi mahsulot turlarini yaratish uchun ishlanmalar natijalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan mamlakatning innovasion muhitini shakllantirish va rivojlantirish, mahsulotlarni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini yaratish va ishlatish hamda keyinchalik bozorda joriy etish va realisasiya qilishdir.

Kichik biznes loyihalarining aksariyat qismi investision va innovasion xarakterda bo'lganligi sababli tijorat banklari tomonidan mazkur loyihalarni kreditlash amaliyotining alohida xususiyatlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar xo'jalik yurituvchi subyektlar va jismoniy shaxslarga investision kreditlar qaytarishlik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va berilgan kreditlarni maqsadga muvofiq ishlatishlik tamoyillariga rioya qilingan holda shartnoma asosida beriladi. Ushbu ajratilayotgan kreditlar mijozning birlamchi hisob raqami ochilgan bank filialidan, ayrim hollarda ikkilamchi hisob raqami ochilgan bank filialidan berilishi mumkin.

Investision kreditlar-xo'jalik yurituvchi subyektlarga yangi turdagi maxsulot va yangi texnologik jarayonlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarishni qayta tiklash va yangilash bilan bog'liq tez qoplanuvchi va yuqori samara beruvchi tadbirlar uchun beriladi. Kreditdan foydalanishning aniq muddati kreditlanayotgan obyektlar bo'yicha mablag'larning aylanishi va harajatlar oqlanishi asosida belgilanadi.

Investision kreditlar ishlab chiqarish va ijtimoiy maqsadlarga mo'ljallangan obyektlarni qurish, qayta tiklash va texnik jihatdan kayta jixozlashga doir harajatlar bilan bog'liq investisiya maqsadlari uchun 3 yil va undan ortiq muddatga beriladi.

Kapital qurilishi obyektlarini qayta ta'mirlash va texnologik jarayonlarni ishga tushirishni kreditlash quyidagi shartlar bajarilgandan keyingina amalga oshiriladi. Jumladan:

- loyiha-smeta hujjatlarini amaldagi andozalar(normativ) asosida va ushbu tartib shartlaridan kelib chiqqan holda kelishib, tasdiqlash;
- davlat arxitektura nazorati yoki mahalliy xokimiyat organlarining barcha turdagi qurilish ishlarini amalga oshirish uchun yozma ruxsatnomasi;
- olinadigan yangi texnologiya va xom-ashyolarning shartnoma bilan ta'minlanganligi;
- bajariladigan ish va xizmatlar pudrati inflyasiya xolatlarni hisobga olgan hisob-kitobi va shartnoma bilan ta'minlanganligi;
- kredit oluvchi tomonidan taqdim qilingan iqtisodiy hisob-kitoblarning o'z-o'zini qoplashi to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan ekspertizadan o'tkazilganligi to'g'risidagi xulosalar;
- majmualar xo'jalik subyektlarining o'z manbalari hisobidan yoki loyiha qiymatining 25% tayyorgarligi mavjud bo'lgan taqdirdagina kreditlanadi;
- qurilish majmualari agar xo'jalik yurituvchi tomonidan oldin olingan kreditlaridan muddati o'tgani mavjud bo'lsa u holda kreditlanmaydi;
- bank tomonidan berilgan kreditni o'z vaqtida to'liq qaytarilishini ta'minlash maqsadida kafolatnoma, garov, yoki boshqa majburiyatlar olinadi.

Mijoz bankka uzoq muddatli (investision) kredit olish uchun murojaat qilganda Bank bo'limining vakolatli xodimi (kredit inspektori) unga kreditni berish tartibi va shartlarini tushuntiradi, Kredit olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxatini tuzadi, mijoz bilan kredit berish shartlarini kelishib oladi.

Kreditlarni rasmiylashtirish quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- kredit oluvchining xuquqiy statusi (darajasi)ni aniqlash uchun uning arizasini ko'rib chiqish;
- kredit oluvchining moliyaviy xolati va to'lovga layoqatini aniqlash;
- kreditlanadigan majmualarning ekspertizasi;
- kreditni rasmiylashtirib shartnoma tuzish.

Kredit oluvchining arizasini bank 10 kun muddat ichida ko'rib chiqib, kredit arizasi bo'yicha yozma xulosasini beradi.

Kredit oluvchining moliyaviy xolati va to'lovga layoqatligini aniqlash ishlari 15 bank ish kuni amalga oshirilishi shart. Istisno tariqasida, yirik investision loyihalar bo'yicha hujjatlar 20 bank ish kuni davomida ko'rib chiqilishi mumkin.



Kreditni rasmiylashtirish mijoz tomonidan taqdim qilingan arizani ko'rib chiqish bilan boshlanadi. Kredit arizasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- so'ralayotgan kredit summasi va loyiha maqsadi;
- muddati;
- aktivlar summasining nisbati;
- kreditlanaetgan majmuaning o'z-o'zini qoplash muddati;
- asosiy qarz va foiz to'lovlarini qaytarish muddati;
- kredit ta'minoti vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- jalb qilingan (qarz) vositalari;
- boshqa banklardagi hisob-varaqlari to'g'risidagi ma'lumot;
- boshqa korxona, tashkilotlarda o'z mablag'i bilan qatnashishi.

Agar kreditlanayotgan majmua (obyekt) qurilish, ta'mirlash, texnologik qayta qurish ishlari bilan bog'liq bo'lsa, u holda mijoz tomonidan moliyaviy xolati va kreditni qaytarish layoqatligini hamda loyihani kompleks ekspertizadan o'tkazish uchun quyidagilar taqdim qilinadi:

- loyihaning texnik – iqtisodiy hamda loyiha qiymati bo'yicha tegishli hujjatlarini o'rnatilgan tartib – qoida-larga muvofiq asoslash;
- qurilish loyihasining moliyaviy nuqtai nazardan qiymatini baholash, loyihaning moliyaviy baholash hisob-kitobi;
- qurilishni chorak (yillar) bo'yicha bajarilishini kerak bo'lgan ishlarini o'rnatilgan tartib asosida tasdiqlash;
- davlat arxitektura qo'mitasi tomonidan berilgan lisenziyaga ega bo'lgan mustaqil ekspertiza tashkilo-tining loyiha smeta hujjatlari bo'yicha ekspert xulosasi;
- davlat ekologiya nazorati organlarining qurilish bo'yicha ekspert xulosasi;
- loyiha summasi 50,0 mln so'mdan yuqori bo'lgan loyihalar bo'yicha pudrat tashkilotining tender tan-lovidan o'tganligi to'g'risidagi hujjatlar to'plami;
- to'lovga layoqatligini aniqlash uchun mijozning oxirgi uch yildagi moliyaviy hisoboti;
- kreditni ta'minlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- mahalliy xokimiyat organlari tomonidan yangi quriladigan uy va erdan foydalanishga ruxsat berilgan-ligini tasdiqlovchi hujjatlar;

Kreditdan foydalanganlik uchun mijoz bankka shartnoma asosida kreditning narxi, ya'ni foiz to'lovlarini to'laydi. Taraflarning kelishuviga muvofiq kreditning narxi pul bozoridagi xolat va inflyasiya ta'siri asosida kamayishi yoki ko'payishi mumkin.

Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkasi ularning muddati, kredit oluvchining kreditning o'z vaqtida qaytarish kafolatlari, kredit resurslariga bo'lgan talab va takliflar, bank narx siyosati hamda kredit xatarini hisobga olgan holda o'rnatiladi.

Foiz to'lovlari shartnomada ko'rsatilgan tartib va muddatda mijozning talab qilib olingungacha depozit hisob raqamidan memorial orderlar asosida shartnomaning ilovasi, ya'ni tarkibiy qismi bo'lgan asosiy qarz va foiz to'lovlarini qaytarish jadvaliga muvofiq undiriladi.

Kredit shartnomasi imzolagandan keyin mijozga ssuda hisob varaqasi ochiladi hamda barcha amaliyotlar kredit shartnomasi shartlaridan kelib chiqqan holda ssuda hisob varaqasi orqali amalga oshiriladi.

Ssuda hisob raqamidan bo'ladigan amaliyotlar kredit shartnomasi asosida obyekt loyiha qiymatidan kelib chiqqan holda, loyiha tarkibiy qismlarining harajatlari yillik o'rnatilgan me'yordan oshmagan va belgilangan manzilli (adresli) ro'yxatlar asosida narxlar indeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ssuda hisob raqamidan to'lov hujjatlari asosida amalga oshirilgan ishlar, sotib olingan asbob va uskunalar hamda boshqa harajatlar loyiha doirasida amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan kreditlar hisobidan moliyalashtirilayotgan mablag'lar hisobidan berilayotgan bo'naklar pudratchilar tomonidan maqsadli ishlatilmagan taqdirda bank buyurtmachiga ushbu xolat yuzasidan xabar beradi va davlat soliq organlari, xuquqni ximoya qiluvchi organlarga belgilangan tartibda xabar beradi.

Ssuda hisob varaqasida to'lov foizlarini qaytarish jadvali mijoz hisob raqamiga pul oqimlarining kelib tush-ishiga qarab o'rnatiladi. Taraflarning kelishuviga muvofiq asosiy qarz va to'lov foizlarini qaytarish jadvaliga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Asosiy qarz va to'lov foizlarini o'z muddatidan oldin qaytarilishi mumkin. Bunday holda mijoz kreditdan haqiqiy foydalangan kunlari uchun foiz to'lovlarini to'laydi.

Bank mijozning kredit resurslaridan samarali va maqsadli foydalanishi bo'yicha quyidagi shakl va yo'na-lishlar bo'yicha nazorat ishlarini olib boradi:

a) ssuda hisob varaqasidan to'lov topshiriqnomalari asosida o'tkazib berilgan mablag'larni obyekt loyiha qiymati va maqsadli ishlatishi bo'yicha mosligini nazorat qilish;

b) qurilish obyektiga chiqib, boshlang'ich buxgalteriya hisobi hujjatlari asosida, olingan kreditni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish;



v) ishlarni bajarilganligi to'g'risida nazorat o'lchov ishlari va sotib olingan jihozlarni o'rnatilgan tartib qoidalar hamda kredit shartnomasi shartlari asosida inventarizasiyadan o'tkazish.

Bank tomonidan moliyalashtirilayotgan obyektlar bo'yicha joyiga borib bajarilgan ishlar o'lchamini tekshiruvdan o'tkaziladi.

Bajarilgan qurilish-montaj ishlarini hajmi va qiymati ularning natura shaklida, buyurtmachi va pudratchi tashkilotlarining ma'lumoti hisob-kitob hamda loyiha-smetasi ko'rsatkichlari bilan mosligi tekshiriladi.

Bajarilgan ishlar bo'yicha nazorat o'lchamini amalga oshirishdan oldin tijorat banki xodimlari qurilayotgan obyektlar bo'yicha hisob-kitoblarda noto'g'ri ma'lumotlar va qo'shib yozishlar bo'lgan yoki bo'lmaganligini quyidagilar asosida aniqlaydi:

- narxlar va tariflarni aniqlash, me'yorlangan harajatlar, mavjudligi yoki yo'qligi, harajatlar me'yorining to'g'ri ishlatilganligi va belgilanganligi;

- arifmetik xatolar;

- qurilish-montaj ishlari qiymatiga bu bajariladigan ishlarga aloqador bo'lmagan harajatlarni qo'shib hisoblash (uskunalarni sotib olish, xizmat safarlari ish joyi bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi uchun qo'shimcha xaq to'lash va xk ko'rinishida), loyiha qiymatiga kiritilmagan obyektlar bo'yicha bajarilgan ish va harajatlar;

- uskunalar bo'yicha defektlar.

Bank filiallari xodimlari tekshirish o'tkazilayotganda ushbu xolatlarni to'liq o'rganib chiqishlari kerak. Yopiq holda bajarilgan ishlar (to'ldirilgan poydevor, pollar konstruksiyasi, avtomobil yo'llari, truboprovodlar o'tkazilgan xandaqlar va boshqalar) hajmi loyiha chizimlari asosida aniqlanadi. Zarurat bo'lgan paytda bank bosh buyurtmachidan yopiq holda bajarilgan ishlar hajmini aniqlash uchun uni ochdirib ko'rish xuquqiga egadir.

Yagona baholash tarkibiga kiruvchi ishlar, ya'ni konstruksiyalarning ayrim qismlari ish turlari bo'yicha alohida to'lovlar hamda obyektga keltirib, ishlatilmagan xom ashyo va konstruksiyalarni obyektдан alohida ajratib ko'rsatish - bajarilgan ishlar qiymatini qo'shib yozish hisoblanadi.

Nazorat o'lchami tekshirishlaridan keyin dalolatnoma tuzilib, xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymati qayta hisoblab chiqiladi va baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'plab mamlakatlarda kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda subsidiyalar, grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha davlat dasturlari muhim rol o'ynaydi, ammo ular ko'p hollarda etarli darajada mavjud emas yoki byurokratik jihatdan olish qiyin ekanligi ma'lum bo'ldi.

Kichik biznes egalari o'rtasida moliyaviy savodxonlikning etarli emasligi natijasida moliyaviy boshqaruvda xatolarga yo'l qo'yishadi, investisiyalarni jalb qilishda qiyinchiliklarga to'qnash kelishlari ma'lum bo'ldi.

Tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining yuqorilgi kichik biznes subyektlari uchun qarz yukini oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Kichik biznes subyektlari uchun garov obyekti va hujjatlari bo'yicha minimal talablar asosida bank mahsulotlarini yaratish, shuningdek, banklar uchun risklarni kamaytirish bo'yicha davlat kafolati dasturlarini ishlab chiqish lozim.

Hukumat tomonidan kichik biznes egalari uchun moliyaviy savodxonlik va moliyaviy boshqaruv ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va konsalting xizmatlarini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

Kichik biznes sohasiga sarmoya kiritadigan xususiy investorlar uchun soliq va boshqa imtiyozlarni kengaytirish, davlat subsidiyalari, kraudfanding yoki P2P kreditlash kabi muqobil moliyalashtirish modellaridan foydalanish orqali mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalarini pasaytirish zarur.

Banklar tomonidan nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki kichik biznes sub'ektlarining biznes tarixi, bozordagi obro'si, raqamli makondagi faolligi va boshqa omillarni hisobga olgan holda ularning kreditga layoqatligini baholash uchun yanada moslashuvchan va zamonaviy skoring modellarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Banklar to'lov shartlari va imtiyozli davrlarni o'z ichiga olgan startaplar va innovation korxonalar uchun ixtisoslashtirilgan kredit mahsulotlarini ishlab chiqishi va taklif qilishi, shuningdek, loyihalar salohiyatini baholashda va rivojlanishning dastlabki bosqichlarida startaplarga kreditlar berish uchun akseleratorlar va inkubatorlar tajribasidan foydalanish kerak.

Bankning doimiy mijozlari uchun maxsus kreditlash shartlarini joriy etish orqali foiz stavkalarini pasaytirish va kreditlash limitlarini oshirish, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha inqirozga qarshi dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, kreditlarni qayta tuzish va vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan vaqtda imtiyozli davr yoki kredit ta'tilini taqdim etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ubaydullayev M. Tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari. T.: Iqtisodiyot va moliya nashriyoti, 2019.



2. Karimov O. Tijorat banklari va kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning strategik jihatlari. "Moliyaviy innovatsiyalar va ularning iqtisodiyotga ta'siri" ilmiy jurnali, 2020.
3. Berger A. N., Udell G. F. The Economics of Small Business Finance: The Roles of Private Equity and Debt Markets in the Financial Growth Cycle. Journal of Banking & Finance, 1998.
4. Murodov M. Tijorat banklarining biznesni qo'llab-quvvatlashdagi moliyaviy xizmatlari va xalqaro tajriba. T.: "Iqtisodiy tadqiqotlar" nashriyoti, 2021.
5. <https://www.bankrate.com/loans/small-business/small-business-statistics/#ownership> – маълумотлари асосида тайёрланди.
6. Liu, Xiangfeng // SME Development in China: A Policy Perspective on SME Industrial Clustering. Institute for International Economic Research (IIER), National Development and Reform Commission (NDRC). —Report 2020–5, pp. 37–68. [Electronic resource] // Mode of access: <http://www.eria.org>
7. <https://iz.ru> маълумотлари асосида тайёрланди.
8. <https://www.norma.uz> маълумотлари асосида тайёрланди.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

